

**AYOLLARGA NISBATAN SODIR ETILADIGAN TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKLARNI  
OLDINI OLIISH BORASIDA TASHKILOTLAR BILAN HAMKORLIKNI  
TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI**

**Otaqulova Shaxnoz Baxtiyor qizi**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada tazyiq va zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy reabilitatsiyani amalga oshirish bo'yicha xorijiy tajriba o'rganilgan.*

**Kalit so'zlar:** *tazyiq, zo'ravonlik, oilaviy zo'ravonlik, shelter, qonunchilik, ayollar, himoya orderi, psixologik yordam, migrant ayollar*

Ta'kidlanishicha, so'nggi yillarda mamlakatda ayollarga ko'rsatilayotgan e'tibor yanada kuchaydi. Ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog'lig'ini muhofaza qilish, kasbiy tayyorgarlik va ish bilan ta'minlashni ta'minlash, muhtoj ayollarga ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'yicha izchil islohotla amalga oshirilmoqda.

Mamlakatda gender tengligini ta'minlash va barcha ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish O'zbekistondagi ustuvor maqsadlardan biri sifatida belgilandi. Bunga erishish uchun xalqaro standartlarga muvofiq ayollarni ijtimoiy-iqtisodiy sohada o'z huquq va manfaatlarini ro'yobga chiqarishda qo'llab-quvvatlashni nazarda tutuvchi qonunchilikni takomillashtirish zarur.

Biroq, bugungi kunda ayollarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish bilan bog'liq masalalarda huquqni qo'llash amaliyotida bir qator muammolar mavjud. Xususan, ayollar va bolalar huquqlariga, shaxsiy hayot sirlarini buzganlik uchun javobgarlikka, ularning sha'ni va qadr- qimmatini kamsitishga taalluqli jinoiy harakatlar uchun mutanosib sanksiyalar belgilanmagan.

Shuningdek, bu ayollarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini etarli darajada himoya qilishga imkon bermaydi jabrlanganni zulm va zo'ravonlikdan davlat tomonidan himoya qilishni ta'minlaydigan orderning amal qilish muddati (o'ttiz kun). Aliment to'lamaganlik uchun jazo sifatida jarima solish yanada katta moliyaviy qiyinchiliklarga olib keladi.

Taklif etilayotgan qonun loyihasi jabrlanuvchini o'n sakkiz yoshga to'lmagan yoki ularga nisbatan zo'ravonlik ishlatgan, jinsiy ehtiyojlarni g'ayritabiiy tarzda qondirgan, uni jinsiy aloqada bo'lishga majburlagan yoki fohishalik bilan shug'ullanishga jalb qilgan shaxslarga nisbatan javobgarlik choralari kuchaytirmoqda. Shuningdek, voyaga etmaganing rasmlaridan foydalangan holda pornografik mahsulot uchun.

Yengillashtiruvchi jazolardan, shu jumladan ushbu jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilishdan foydalanish taqiqlanadi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning, voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligi va erkinligiga qarshi jinoyatlar sodir etganlik, shuningdek jabrlanuvchini tarbiyalash,

kasbga tayyorlash yoki unga g'amxo'rlik qilish bo'yicha o'z vazifalarini bajaruvchi shaxs tomonidan ushbu jinoyatlarni sodir etganlik uchun javobgarlik kuchaytirilmoqda.

Yana bir muhim yangilik - uydagi (maishiy) zo'ravonlik uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik joriy etiladi. Xususan, zamonaviy xalqaro me'yorlar va ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilish bo'yicha xorijiy tajribadan kelib chiqib, jismoniy zo'ravonlik bilan bir qatorda iqtisodiy va ruhiy zo'ravonlik uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik belgilanadi.

Bundan tashqari, shaxsning shaxsiy hayoti to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish va uning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitish, jinsiy zo'ravonlik, voyaga etmagan bolalariga vasiy yoki homiy tayinlash majburiyatini bajarmaslik uchun jinoiy javobgarlik belgilanadi.

Aliment majburiyatlarining bajarilishini ta'minlaydigan chora sifatida pullik jamoat ishlariga majburiy jalb qilish sifatida yangi ma'muriy jazo chorasi joriy etiladi.

Shu bilan birga, ilgari voyaga etmaganlarga nisbatan jinsiy jinoyatlar sodir etgan shaxslarga ta'lim berish, bolalarni tarbiyalash, sog'lomlashtirish faoliyatini olib borish, sport va ijodiy tashkilotlarda ishlashni taqiqlovchi norma joriy etiladi.

Deputatlarning fikricha, qonun loyihasi xotin-qizlar va bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olishga, oila institutini mustahkamlashga, bolalar va ayollar huquqlarini ta'minlash masalalarida mamlakatning xalqaro indekslardagi mavqeini yaxshilashga xizmat qiladi.

Respublikamizda gender tengligini ta'minlashga oid turli masalalar, jumladan xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarini o'rganishga so'nggi yillarda alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Jumladan, "Mahalla va oila" instituti tomonidan mazkur yo'nalishda qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshiriladi, ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil etilib, nashr qilib kelinadi[4]. Umuman olganda, bugungi kunda mahalliy mualliflar tomonidan xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlari psixologik, pedagogik, falsafiy, huquqiy nuqtai nazardan tadqiq etib kelinmoqda [5;6;7;8;9].

Tadqiqot jarayonida tanlab olingan yo'nalish bo'yicha tajribasini o'rganish uchun davlatlarning geografiyasi hamda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarini oldini olish, zo'ravonlik qurboni bo'lgan ayollarni qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirayotgan ishlari inobatga olindi. Tadqiqotda 2 ta Osiyo (Singapur, Yaponiya), 1 ta Yevropa (Shveysariya), 2 ta Amerika (Argentina va Kanada) hamda 1 ta Avstraliya (Avstraliya) qit'asidan mamlakatlar tanlab olindi. Tanlab olingan mamlakatlarning barchasi AQSHning Jorjtaun instituti tomonidan tayyorlanadigan "Ayollar, tinchlik va xavfsizlik indeksi - 2021/2022" (Women, Peace and Security Index - 2021/2022) ning "Jinsiy sherik tomonidan zo'ravonlik" indikatorini bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega, jumladan Singapur va Shveysariya eng yaxshi natija qayd etgan [10]. Mamlakatlarning tajribasi o'rganilayotgan kontent-analiz, data-analiz, qiyoslash, umumlashtirish kabi metodlardan foydalanildi.

Tazyiq va zo'ravonlik holatiga uchragan ayollar bilan ishlashda har bir mamlakatning o'z yondashuvi mavjud. Umuman olganda aksariyat o'rganilgan mamlakatlarda mazkur yo'nalishda faoliyat yurituvchi davlat va nodavlat organlarining faoliyatini ma'lum bir davlat tashkiloti umumlashtirib, muvofiqlashtirib turadi. Masalan, Singapurda oilaviy hamda xotin-qizlarga taalluqli masalalar, xususan, tazyiq va zo'ravonlik holatlarini kamaytirish, zo'ravonlik qurbonlarini himoya hamda rehabilitatsiya qilish bilan bog'liq davlat siyosatini Ijtimoiy va oila rivojlanishi vazirligi amalga oshiradi. Yoki Argentinada Ayollar, gender va xilma-xillik vazirligi, Yaponiyada Gender tengligi byurosi, Kanadada esa Ayollar, gender tengligi va yoshlar masalalari vazirligi mazkur yo'nalishdagi faoliyatni umumlashtiradi.

2022-yil Singapurda "Singapur oilalari yili" deb nomlangan bo'lib, 2025-yilgacha mo'ljallangan "Oilalar uchun Singapur - 2025" (A Singapore Made For Families 2025) Milliy dasturi qabul qilingan[11]. Mazkur Milliy dasturga ko'ra, "Oilalarning xavfsizligini ta'minlash" yo'nalishi belgilangan. Zo'ravonlik va jinsiy tazyiqqa qarshi milliy ishonch telefoni tashkil etilgan - 1800-777-0000. 2023 yilda oilaviy zo'ravonlikka nisbatan qonuniy himoyalash tizimini kuchaytirish, zo'ravonlar uchun javobgarlik va rehabilitatsiya tizimini yaxshilash belgilangan. Mamlakat bo'ylab turli yo'nalishlardagi 48 ta oilaga xizmat ko'rsatish markazlari, oilaviy zo'ravonlik bo'yicha 2 ta maxsus markazlar (TRANS SAFE markazi va Care Corner Project Start) faoliyati yaxshilanishi qayd etilgan.

Shveysariyada esa boshpana markazlari frauenhaus deb ataladi. Mamlakat bo'yicha 2018-yilda jami 1771 ta oilaviy zo'ravonlik holatlari bo'yicha xotin-qizlar mavjud 19 ta ayollar boshpana markazlariga murojaat qilgan bo'lsa, ularning 487 nafari joy yoki xodim yetishmasligi sababli rad etilgan. Yana 319 nafari esa boshqa sabablarga ko'ra shelterlarga qabul qilinmagan. Barcha arizalarning deyarli yarmi rad etilgan, ushbu ayollarning 41 foizi boshqa inqiroz markazlaridan joy topa olishgan. 19 ta boshpanada qolgan 965 nafar ayollarning markazlarda qolish davomiyligi o'rtacha 37 kunni tashkil etgan.

### **XULOSA**

Tazyiq va zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish asosida quyidagilarni taklif qilish mumkin:

- Milliy qonunchilikka "oilaviy zo'ravonlik" tushunchasini kiritish. Jinoyat huquqida oilaviy zo'ravonlikni alohida jinoyat sifatida tasniflash;

- Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikka oid jinoyatlar uchun javobgarlikni kuchaytirish. Masalan, Singapurda nomusga tegish jinoyati uchun 20 yilgacha ozodlik mahrum qilish jazosi belgilangan. Bizda esa ushbu holatda javobgarlik uch yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan belgilangan (O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksi 118-modda, 2-xatboshi);

- Tazyiq va zo'ravonlikka uchragan ayollarni himoya qilish, ularning reabilitatsiyasini amalga oshirishda faqatgina davlatga bo'ysunuvchi reabilitatsiya markazlaridan tashqari nodavlat notijorat shaklidagi inqiroz markazlari, vaqtinchalik

boshpanalar tashkil etish. Bu bir tomondan markazlar va ulardagi joylar sonining ortishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan raqobat tufayli soha mutaxassislarida professionalizm kuchayadi;

- Ayollarni reabilitatsiya qilish markazlarining joylashgan joyi, unda boshpana topgan ayollar haqidagi ma'lumotlarning anonimligini ta'minlash;

- Reabilitatsiya qilish markazlarining faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida ijtimoiy aksiyalar, targ'ibot tadbirlarini o'tkazish;

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. World Health Organization. (2021). Violence against women prevalence estimates, 2018: global, regional and national prevalence estimates for intimate partner violence against women and global and regional prevalence estimates for non-partner sexual violence against women. World Health Organization.

2. United Nations Economic and Social Affairs (2015). The World's Women 2015, Trends and Statistics, p. 159.

3. "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'zRQ-561-sonli Qonun. 02.09.2019. (<https://lex.uz/docs/-4494709>)

4. <https://moiti.uz/oz/services/library>.